

2024

20-Noyabr


O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI

ISSN: 2181-3302

6.618

2024 Impact Factor

Exact
Natural
Medical
Technical
Economics
Philological
Pedagogical
Social sciences
and humanities





	BOSHLANG'ICH SINFLARDA SODDA TENGLAMALARNI YECHISHGA O'RGATISH USULLARI	
49.	Usmonov Muhiddin G'IIJAK - O'ZBEK XALQ MUSIQASINING AJRALMAS QISMI	256
50.	Ergashev Jamshid Jamoliddinovich, Tursunov Abdulxamid G'ofurjon o'g'li DEVELOPMENT ISSUES OF ENTREPRENEURSHIP IN SMALL INDUSTRIAL ZONES	258
51.	Yaqubjonov Donyor Nabijon ogli, Xaydaraliyev Xurshid Xolmirzayevich FUTBOLCHILARNI TEXNIK-TAKTIK TAYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	263
52.	Otajanov Nematilla RUS BOBURSHUNOSLIGIDA ILK URINISH, DASTLABKI TAJRIBALAR	266
53.	Adixamjonova Xumora, Qobuljonova Diyora, Muhabbat Sodiqova Salimovna KONSTITUTSIYA MENING HUQUQLARIM QALQONI.	274
54.	Xoldorov J. X. DANAK MEVALI O'SIMLIKLARDA UCHROVCHI AYRIM PATOGEN FITOVIRUSLAR TASNIFI	278
55.	G'anijanova SH TURKISTON BOSQININING TARIXIY TAFSILOTLARI: MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK TADQIQOTLARI	282
56.	Xamrakulov Abduraxmat Karimovich, Xasanov Tursunali Haydarali o'g'li MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH NATIJALARI	288
57.	Рахманова Г. Г. МЕЖДОМЕТИЕ КАК ОБЪЕКТ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ОПИСАНИЯ	292
58.	Н.А.Ирмухамедова, А.Расулов АКТУАЛЬНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫЙ СЕТИ	294
59.	Ziyoda Urinbayeva MUHANDISLIK PEDAGOGIKASI: STAEM YONDASHUVLI MUHANDISLIK TA'LIMINING YANGI PARADIGMALARI	297
60.	Kurbanov F. B. BOSHLANG'ICH SINFLARDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O'RGATISH METODIKASI	301
61.	Qurbanova M. F INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIJY TAJRIBALAR	305
62.	Xalikulov E. TEXNOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI DARS MASHG'ULOTLARIDA O'YIN TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH USULLARI	309
63.	Lenara Serverovna Seit-Asan NEYRODEGENERATIV HOLATNING EKSPERIMENTAL MODELI BILAN HAYVONLARNING MIYA TO'QIMALARINING LIPID TARKIBINI O'GANISH	316
64.	Saparova Umida Baxromovna Nizomiddinova Dilafro'z Dilshod qizi ABDURAUF FITRATNING PEDAGOGIK QARASHLARI, "OILA" ASARIDA TA'LIM-TARBIYAGA OID PEDAGOGIK-DIDAKTIK USLUBLARI	321
65.	Madaminova Dilfuzaxon Xamdamjon qizi BOSHLANG'ICH SINF TARBIYA DARSALARIDA O'QUVCHILARNI MEHNATGA IJOBİY TARBIYALASHDA MUTAFAKKIRLAR MEROSIDAN FOYDALANISH.	327
66.	Yusupjanova Shaxnoz Mirzatillayevna GOSPITAL TA'LIMDA - "MEHRLI MAKTAB" LAR PEDAGOGIK JARAYONDA TURLI TA'LIM BERISH USULLARIDAN FOYDALANISH	331
67.	Ikrom Qodirov BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	336
68.	Ибадуллаева Шарофат Нуруллаевна ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ СПЕЦИАЛЬНЫХ ПЕДАГОГОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	340
69.	Арзымова Саёра Нагмет кизи Султанхужаева Гузал Саидхматовна МЕДИЦИНСКАЯ ТЕРМИНОЛОГИЯ: ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА С РУССКОГО ЯЗЫКА НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК	349



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Ikrom Qodirov

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika kafedrasи v. b. dotsenti
ikrom20202021@gmail.com +9989998572417*

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlantirishi, innovatsion faoliyat, unga berilgan ta'riflar, pedagogik ta'limda innovatsion faoliyatning o'rni, talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash tamoyillari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Innovatsion faoliyat, pedagogik texnologiya, moslashuvchanlik, ijodiy daraja, evristik daraja.

Talabalarning mustaqil o'qituvchilik faoliyatini boshlashiga kasbiy faoliyat bo'yicha zaruriy malaka talablarini egallashi zarurligi belgilab qo'yilgan. Undan keyin esa, o'quv jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar, tizimga har qanday yangilikni kiritish to'g'ridan-to'g'ri o'qituvchi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshiriladi. Innovatsion faoliyat - bu yangiliklar asosidagi uzlucksiz jarayon bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashadi.

Innovatsion faoliyat bir qator muammolarni hal qilishga qaratilgan an'anaviy me'yorlarning yangi ijtimoiy talablarga mos kelmasligi yoki yangi shakllangan amaliyot normasining ziddiyatlari natijasida vujudga keladi. Innovatsiyalar doimo pedagogik faoliyatga yangiliklar olib kelib, ta'limning rivojlanishiga hissa qo'shadi, pedagogik faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi[1].

V.S.Lazarev innovatsion faoliyat haqida «Innovatsion faoliyat - bu alohida faoliyat turi bo'lgani uchun uning motivlari, maqsadlari, vazifalari va boshqalarning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish zarur» [2] -deb ta'kidlaydi.

A.F.Ismailovning fikricha, innovatsion faoliyat - pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. Innovatsion faoliyat - bu yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi, yoxud amaliyotning yangi qo'llanilayotgan me'yorining mavjud me'yor bilan to'qnashushi natijasida vujudga keluvchi majmuali muammolarning yechimiga qaratilgan faoliyatdir[3].

Biz uchun asosiy e'tiborli jihat shundaki, biz innovatsion faoliyat bilan shug'ullanadigan o'qituvchining kasbiy shakllanish modelini ishlab chiqishimiz, faoliyat samaradorligini takrorlash jarayonining tashkiliy mexanizmlaridan biri bo'lishi lozim.

O'qituvchining innovatsion faoliyatini muvaffaqiyatli amalgalashishini o'rganib chiqqan olimlardan biri S.Sulaymanova «O'qituvchining kasbiy rivojlanish jarayonining mohiyati o'qituvchining kasbiy rivojlanishi jarayonida yuzaga keladigan individual ta'lim kamchiliklarini hal qilishdan iborat. Ushbu jarayon o'qituvchining bilim va



ko'nikmalarini boyitishni, individual ta'lif dasturlarini tayyorlash va amalga oshirish orqali innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kasbiy malakani shakllantirishni o'z ichiga oladi»[4]-deb ta'kidlaydi.

S. G. Grigoryevaga ko'ra, innovatsion faoliyat deganda, o'quv jarayonini solishtirish, o'rganish, o'zgartirish va rivojlantirish orqali yaxshiroq natijalarga erishish, yangi bilim olish va sifat jihatidan farq qilish orqali o'z amaliy pedagogik tajribasini anglashga (aks ettirishga) asoslangan maqsadli pedagogik faoliyat tushuniladi[5].

Innovatsion faoliyati jarayonida o'qituvchi o'quvchining bilim olishi va egallashi uchun, uning shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishi uchun imkoniyatidan kelib chiqib yo'naltiradi va sharoit yaratadi. Bunday o'quv jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga to'g'ri kiritish, o'quvchilarning bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi vazifasini bajarishiga olib keladi. Va bu talabalardan ko'proq mustaqillik, ijodkorlik va iroda fazilatlarini talab qiladi.

H.B.O'rinooyev, B.H.Jalilov va M.A. Ortiqovlar fikricha, «ta'lif jarayonida har qanday pedagogik texnologiyaning qo'llanilishi individual xarakterga bog'liq bo'lib, u o'quvchini kim o'qitayotganiga va o'qituvchiga esa kim o'qiyotganiga bog'liq. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan trening yoshlarning hayotdagi muhim yutuqlari va muammolariga o'z munosabatini bildirish istagini qondiradi, ularga fikrlash, o'z nuqtai nazarini asoslash imkoniyatini beradi» [6].

M.A. Kuprina innovatsion faoliyatning shakllanishini to'rt darajadan birida baholash mumkin[7], deb ta'kidlab o'tgan:

- moslashuvchanlik o'qituvchining yangiliklarga beqaror munosabati bilan tavsiflanadi. Yangilik faqat ijtimoiy muhit bosimi ostida o'zlashtiriladi;

- reproduktiv pedagogik yangiliklarga nisbatan barqaror munosabat, tayyor uslubiy ishlanmalarni ozgina o'zgarish bilan nusxalash bilan ajralib turadi. O'qituvchi o'zini takomillashtirish zarurligini biladi;

- evristik daraja katta maqsad, barqarorlik, yangiliklarni joriy etish usullari va usullarini bilish bilan tavsiflanadi. O'qituvchi har doim yangi narsalarga ochiq, pedagogik yechimlarning yangi usullarini izlaydi va amalga oshiradi;

- ijodiy daraja innovatsion faoliyatning yuqori samaradorligi, muammolarga yuqori sezuvchanlik va ijodiy faollik bilan ajralib turadi. O'qituvchi maqsadli ravishda yangi ma'lumotlarni qidiradi, mualliflik dasturlarini yaratadi, o'z pedagogik tajribasi bilan baham ko'radi. Bunday o'qituvchilar faoliyatida sezgi, ijodiy tasavvur, improvizatsiya muhim o'rinni tutadi.

Ta'lif muassasalarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarining yuqori darajada shakllanishi o'qituvchining innovatsion faoliyatiga, ziddiyatli hodisalar va qarashlarning o'zaro boyishiga bog'liq.

Kreativlik va professionallik nisbatlarini hisobga olish innovatsion faoliyatning tuzilishini aks ettirish uchun katta ahamiyatga ega[9].



R.B.Yarmatovning fikricha, «o'qituvchilarning innovatsion faoliyati - yangiliklarni izlash, o'rganish va ularga tayangan holda ilmiy asoslangan ma'lumotlardan foydalanish, pedagogik, psixologik va ijtimoiy-idtisodiy yangiliklarni o'zlashtirish asosida ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuv texnologiyalarini joriy etish orqali pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlash hisoblanadi” [10] deyilgan.

O'quv jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar, har qanday yangiliklarni tizimga kiritish ham o'qituvchi faoliyatini bevosita yangilash va o'zgartirish orqali batafsil o'rganiladi. Innovatsion faoliyat - bu innovatsiyalar asosida uzlusiz ish bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashadi. Innovatsion faoliyat an'anaviy me'yorlarning yangi ijtimoiy talablarga mos kelmasligi yoki vujudga kelayotgan amaliyot normasining paydo bo'layotgan me'yorga zid kelishi natijasida yuzaga kelgan bir qator muammolarni ijobjiy hal qilishga qaratilgan. Innovatsiyalar pedagogik faoliyatga yangiliklarni doimiy ravishda kiritish orqali ta'limning rivojlanishiga munosib hissa qo'shamdi, pedagogik faoliyatga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Innovatsion o'qitish - bu o'qitish uslubi va uslubini o'zgartiradigan o'qituvchining ijodkorligi va yangiligi. Butun dunyoda o'quv yurtlari o'quvchilar bilimini oshirish uchun yangi g'oyalar, usullar, texnologiyaga asoslangan yangiliklarni joriy qilishga intiladilar. Innovatsion o'qitish ta'limning hozirgi va kelajagi uchun talabalarga o'z potensialini to'liq ishga solishga yordam berish uchun zarurdir.

Innovatsion faoliyat - bu kishining innovatsion o'zgarishlar qilish (innovatsion metod va texnologiyalar va shu kabilarni yaratish) borasidagi hamda shaxsiy va ijtimoiy sohadagi muayyan bir maqsad sari yangicha yondashuvlarining pirovard natijasi. Shuningdek, u shaxsnинг hayotida egallagan sohasida erkin (ijodiy) faoliyat ko'rsata olishi hamdir.

Shunga ko'ra, o'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonini ma'lum bir strategiya sifatida birlashtirish mumkin, u quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- ijodiy faoliyatga yo'naltirish, har bir o'qituvchining o'ziga xos xususiyati, har xil va individual tarzda ta'minlanishi;
- uni tayyorlashga ijodiy yondashish;
- o'qituvchining innovatsion xabardorligini ta'minlaydigan tegishli fanlar sikllari bilan birgalikda pedagogik ta'limni fundamentallashtirish;
- o'quvchilar malakasini oshirishning mazmuni, shakllari va usullarining o'zgarishi ochiqligi, o'zgaruvchanligi, dinamikligi;
- pedagogik ta'limni demokratlashtirish, pedagogik ta'lim muassasasining butun hayot tarzi, bu pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilarining ijodiy faolligi, tashabbuslarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz lozimki, bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini amalga oshirishda muassasadagi mavjud resursni tahlil qilishda kadrlar malakasi ya'ni yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan o'qituvchilarning professionalligi katta ahamiyat kasb etadi. Bunda malakali o'quvchilar tarkibining



yangiliklar va innovatsiyalarni o'zlashtirishga va qo'llashga tayyorligi muhim rol o'ynaydi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Urinboyev H. B., Djalilov B. Kh., Ortiqov M. A. The importance of modern innovative teaching methods in the higher education system of Uzbekistan / Journal of Critical Reviews Vol 7, Issue 7, 2020. -1066 p.
2. Лазарев В.С., Инновационная деятельность учителя// Эксперимент и инновации в школе. 2008/2. -C.5.
3. Ismailov A.F. Akademik litseylarda tarix fanini o'qitishning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish . Ped. fan. b.fal. dok (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Toshkent, 2018. -58 b.
4. Suleimanova S. Innovative Activity of the Teacher: In the Course of his Professional Formation. Procedia - Social and Behavioral Sciences 81 (2013). -P. 395 – 399.
5. Григорьева С. Г. Инновационная деятельность учителя как педагогическое явление // Вестник ЧГПУ им. И. Я. Яковлева. 2011. № 3 (71). Ч. 1. -C.53.
6. Urinboyev H. B., Djalilov B. Kh., Ortiqov M. A. The importance of modern innovative teaching methods in the higher education system of Uzbekistan / Journal of Critical Reviews Vol 7, Issue 7, 2020. -1065 p.
7. Куприна М.А. «Инновационная деятельность современного педагога дополнительного образования» (методический сборник) . -Тамбов.: 2018. -C.26.
8. Куприна М.А. «Инновационная деятельность современного педагога дополнительного образования» (методический сборник) . -Тамбов.: 2018. -C.7.
9. Yarmatov R.B. Bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish: Avtoref. ped. fan. dok. - Toshkent, 2020. - 70 b.
10. To'raqulov X.A., Jabborov N.S.. Bo'lajak o"qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari. -T.: «Fan va texnologiya», 2019. -B. 26-27.